



## 2021- yilning yanvar-noyabr oylarida Navoiy viloyatida bajarilgan qurilish ishlari



4 469,8  
mlrd. so'm

112,2 %

Joriy yilning yanvar-noyabr oylarida Navoiy viloyatida jami **4 469,8** mlrd.so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 2020- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan **112,2 %** ni tashkil etdi.

### Qurilish ishlari hajmining tarkibi

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.




Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat bo'lgan korxonalar va tashkilotlar tarkibi bo'yicha bo'linadi.

**Ma'lumot uchun:** qurilish ishlari hajmi bu – o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta'mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



**Qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan  
korxonalar va tashkilotlar soni,  
2021- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda**



2021- yilning 1- dekabr holatiga ko'ra, qurilish sohasida korxonalar va tashkilotlar soni 1 672 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 121 taga oshdi.



Jami qurilish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bu bino va inshootlar qurish ishlarining o'tgan yilga nisbatan **112,1 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **51,6 %**), fuqarolik obyektlarini qurish **105,5 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **6,9 %**), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining **103,3 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **41,5 %**) o'sishidir.




Navoiy viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari soni (birlikda)

		Holatiga ko'ra:		O'tgan yilga nisbatan, % da
		01.12.2020- yil	01.12.2021- yil	
				
	Navoiy viloyati	1 551	1 672	107,8
	Navoiy sh.	431	479	111,1
	Zarafshon sh.	119	150	126,0
	G'ozg'on sh.	-	3	-
	<i>tumanlar:</i>			
	Karmana	252	270	107,1
	Konimex	39	41	105,1
	Qiziltepa	231	248	107,4
	Navbahor	188	182	96,8
	Nurota	98	108	110,2
	Tomdi	42	41	97,6
	Uchquduq	53	50	94,3
	Xatirchi	98	100	102,0




Navoiy viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan  
qurilish korxonalari soni,  
2021- yil 1- dekabr holatiga ko'ra (ulushi, % da)



**Ma'lumot uchun:** viloyatda soni bo'yicha eng ko'p ulushga ega bo'lgan qurilish korxonalari Navoiy shahri (28,6 %), Karmana (16,1 %) va Qiziltepa (14,8 %) tumanlarida qayd etildi.

Joriy yilning yanvar-noyabr oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **1 166,8** mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2020- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan **114,0** % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi **26,1** % ni tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-noyabr oylarida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi




**Ma'lumot uchun:** yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Zarafshon shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **60,3 %** ni), Navoiy shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **18,1 %** ni) va Qiziltepa tumaniga (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **17,4 %** ni) to'g'ri keldi.




## Qurilish ishlarining umumiy hajmida kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2021-yilning yanvar-noyabr oylarida qurilish ishlarini bajaragan boshqa tashkilotlarga nisbatan oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **45,4 %** ga to'g'ri kelib, 2020-yilning yanvar-noyabr oylari ko'rsatkichiga nisbatan **0,7** punktni tashkil etdi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2020-yilning mos davriga nisbatan **111,1 %** ni tashkil etgan holda **2 030,4** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.




Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi **28,5 %** ni tashkil etdi yoki **1 272,6** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2020-yilning yanvar-noyabr oyiga nisbatan **112,5 %** ni tashkil etdi.

Qurilish ishlarining umumiy hajmida  
norasmiy sektor



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **883,4** mlrd. so'm yoki nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **3 586,4** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda **19,8 %** va **80,2 %** ni tashkil etdi.

Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari





**2021- yilning yanvar- noyabr oylarida  
hududlar kesimida mulkchilik shakllari  
bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari**

	Qurilish ishlari hajmi, mlrd. so'm	Nodavlat mulki		Davlat mulki	
		mlrd. so'm	Ulushi, % da	mlrd. so'm	Ulushi, % da
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>4 469,8</b>	<b>3 551,5</b>	<b>100,0</b>	<b>918,3</b>	<b>100,0</b>
Navoiy sh.	1046,0	839,7	23,6	206,3	22,5
Zarafshon sh.	1048,2	371,1	10,5	677,1	73,7
<i>tumanlar:</i>					
Karmana	470,1	470,1	13,2		
Konimex	49,2	49,2	1,4		
Qiziltepa	712,6	712,6	20,1		
Navbahor	338,1	338,1	9,5		
Nurota	278,2	278,2	7,8		
Tomdi	24,9	24,9	0,7		
Uchquduq	65,7	65,7	1,9		
Xatirchi	436,8	401,9	11,3	34,9	3,8

\* Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda




Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi  
2021- yil yanvar- noyabr oylarida

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining 76,8 % ni yoki **3 435,3** mlrd. soʻm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan **1 166,8** mlrd. soʻmlik ishlar bajarildi yoki jami qurilish ishlaridagi ulushi 26,1 % ni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar boʻyicha yangi qurilish hisobidan **2 030,4** mlrd. soʻm yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi 45,4 % ni tashkil etdi.

Qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **1 272,6** mlrd. soʻm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 28,5 % ni tashkil etdi.






**2021- yilning yanvar- noyabr oylarida  
hududlar kesimidagi qurilish ishlari**

	<b>Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so‘m)</b>	<b>O‘sinh sur‘ati, % da</b>	<b>Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish (mlrd. so‘m)</b>
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>4 469,8</b>	<b>112,2</b>	<b>3 462,6</b>
Navoiy sh.	1046,0	121,2	914,1
Zarafshon sh.	1048,2	106,1	737,5
<i>tumanlar:</i>			
Karmana	470,1	113,7	346,3
Konimex	49,2	84,9	38,1
Qiziltepa	712,6	123,4	536,7
Navbahor	338,1	109,2	235,5
Nurota	278,2	110,6	193,9
Tomdi	24,9	106,0	17,3
Uchquduq	65,7	106,6	51,9
Xatirchi	436,8	100,0	391,3

\*Hududlar bo‘yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo‘shgan holda

Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha  
qurilish ishlari

ulushi, % da



**Ma'lumot uchun:** Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.




## Binolar va inshootlar qurilishi

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **20,1 %** ni tashkil etib, 2020- yilning yanvar-noyabr oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **0,1** punktga kamaydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2020- yilning yanvar-noyabr oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **12,2** punktga ko'payib, **63,5 %** ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2020- yilning yanvar-noyabr oyidagi ko'rsatkichga nisbatan **7,6** punktga kamayib, **16,4 %** ni tashkil etdi.

*ulushi, % da*






## Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **15,4 %** ni tashkil etdi va 2020- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan **0,4 %** ga kamaydi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **84,6 %** (**1,1 %** ko'payish) ni tashkil etdi.






## Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2020- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan **10,1 %** ga kamaydi va **35,1 %** ni tashkil etdi. Qolgan **64,9 %** ni kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2020- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan **14,2 %** ga ko'paydi.

*ulushi, % da*





**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hududlar  
kesimida qurilish ishlari  
2021- yil yanvar-noyabr oylarida**

*mlrd. so'm*


	Qurilish ishlari hajmi	shu jumladan:		
		Bino va inshootlar qurilishi	Fuqarolik obyektlari qurilishi	Ixtisoslash- tirilgan qurilish ishlari
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>4 469,8</b>	<b>3 435,3</b>	<b>616,1</b>	<b>418,4</b>
Navoiy sh.	1046,0	779,9	181,6	84,5
Zarafshon sh.	1048,2	635,2	213,0	200,0
<i>tumanlar:</i>				
Karmana	470,1	405,9	39,4	24,8
Konimex	49,2	40,6	5,1	3,5
Qiziltepa	712,6	619,2	64,6	28,8
Navbahor	338,1	281,6	30,5	26,0
Nurota	278,2	243,5	15,4	19,3
Tomdi	24,9	20,3	1,8	2,8
Uchquduq	65,7	45,1	11,9	8,7
Xatirchi	436,8	364,0	52,8	20,0

\*Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda




**Iqtisodiy faoliyat turlari hamda hududlar kesimida qurilish ishlari**

**Hududlar kesimida bino va inshootlar qurilishining ulushi, % da**



**Bino va inshootlar qurilishining jami qurilish ishlariga nisbati, % da**




Joriy yilning yanvar-noyabr oylarida bino va inshootlar qurilishi ishlarining umumiy hajmida eng yuqori ulush Nurota tumanida (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 87,5 % ni yoki **243,5** mlrd. so'm), shuningdek, Qiziltepa tumanida (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 86,9 % ni yoki **619,2** mlrd. so'm), Karmana tumanida (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 86,4 % ni yoki **405,9** mlrd. so'm) qayd etildi.




Joriy yilning yanvar-noyabr oylarida fuqarolik qurilish obyektlari qurilishining umumiy hajmida eng yuqori ulush Zarafshon shahrida (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmidan 20,3 % ni yoki **213,0** mlrd. so‘m), Uchquduq tumanida (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 18,1 % ni yoki **11,9** mlrd. so‘m), Navoiy shahrida (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 17,4 % ni yoki **181,6** mlrd. so'm) qayd etildi.

**Fuqarolik obyektlari qurilishining jami qurilish ishlariga nisbati, % da**



**Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlariga nisbati, % da**



Joriy yilning yanvar-noyabr oylarida ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari qurilishining umumiy hajmida eng yuqori ulush Zarafshon shahrida (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 19,1 % ni yoki **200,0** mlrd. so‘m), Uchquduq tumanida (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 13,2 % ni yoki **8,7** mlrd. so'm), Tomdi tumanida (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 11,1 % ni yoki **2,8** mlrd. so‘m) qayd etildi.

2021- yilning yanvar- noyabr oylarida  
hududlar kesimidagi qurilish ishlari

(mlrd. soʻmda)

Zarafshon sh.  
1 048,2



Navoiy sh.  
1 046,0



Qiziltepa t.  
712,6



Karmana t.  
470,1



**Ma'lumot uchun:** Qurilish ishlarining eng yuqori hajm ko'rsatkichi Zarafshon shahri (1 048,2 mlrd.soʻm), Navoiy shahri (1 046,0 mlrd.soʻm), Qiziltepa (712,6 mlrd.soʻm), Karmana (470,1 mlrd.soʻm) tumanlariga toʻgʻri keladi.

Investitsiyalar va qurilish  
statistikasi boʻlimi

Tel.: (71) 202-85-20; (79) 223-54-73